

## MO YANNING “QURBAQA” ROMANIDAGI BA’ZI PERSONAJLAR ISMLARIGA OID



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460855>

**Durdona QULIYEVA,**

SamDCHTI o‘qituvchisi,

Samarqand, O‘zbekiston.

Tel: +998979252927;

E-mail: [doshkanoshka@gmail.com](mailto:doshkanoshka@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqola zamonaviy Xitoy adabiyotining yorqin vakili Mo Yanning 2009-yil dekabr oyida birinchi marotaba nashrdan chiqqan mashhur “Qurbaqa” romanidagi personajlarning g‘ayrioddiy ismlariga bag‘ishlanadi. Mazkur romanda hikoyachi tilidan mashhur bir yozuvchiga maktub shaklida yozgan, boshidan kechirgan voqealari aks ettirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Mo Yan, Qurbaqa romani, doya xola, murojaat ismlari, tana qismlari, ichki organlar.

**Аннотация.** Данная статья посвящена необычным именам персонажей известного романа, впервые опубликованного в декабре 2009 года «Лягушка» Мо Яня, яркого представителя современной китайской литературы. В этом романе рассказчик написал в виде письма известному писателю, отражая его переживания.

**Ключевые слова:** Мо Янь, роман «Лягушка», тетя-акушерка, слова обращения, части тела, внутренние органы.

**Abstract.** This article is devoted to the unusual names of the characters in the famous novel, first published in December 2009 "The Frog" by Mo Yan, a prominent representative of modern Chinese literature. In this novel, the narrator wrote in the form of a letter to a famous writer, reflecting his experiences.

**Key words:** Mo Yan, novel "The Frog", aunt-midwife, words of address, body parts, internal organs.

Mo Yan zamonaviy Xitoy adabiyotining eng yorqin adiblaridan biri bo‘lib, yozgan romanlari orqali butun dunyoni zabt etgan Nobel mukofoti sovrindori hisoblanadi. Taniqli adib 2012-yilda adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha Nobel mukofotini “Xalq ertaklari, tarix va zamonaviylikni gallyutsinatsion realik bilan uyg‘unlashtirgan yozuvchi” sifatida qo‘lga kiritgan. O‘rta asr Xitoy adabiyotini Li Bo (李白) va Du Fu (杜甫) siz

tasavvur etib bo'lmaganidek, zamonaviy Xitoy adabiyotini ham Mo Yan (莫言)siz tasavvur etib bo'lmaydi.

Mo Yan juda ham ko'plab mashhur hikoya va romanlar muallifi hisoblanadi. Mo Yanning “Qurbaqa” (蛙) nomli romani kitobxonlar orasida juda katta shuhrat qozongan. 2011-yilda ushbu roman Xitoyda har 4 yilda bir marotaba taqdim etiladigan eng nufuzli adabiy mukofoti hisoblangan Mao Dun mukofotiga loyiq topilgan.[3,2] Romanda qishloq shifokori hayoti hamda juda murakkab mavzu - qishloqlarda bola tug'ish siyosatining 60 yillik tarixi haqida hikoya qilinadi. Mo Yanning fikriga ko'ra, bu asar “inson ruhiyati laboratoriyasi”ga o'xshaydi, u insoniyat mohiyatini aniqlash uchun o'z qahramonlarini ataylab eng ekstremal sharoitlarda turlicha vaziyatlarda aks ettiradi.

Kitobxon romanni mutolaa qilar ekan, kitobxon ham yozuvchi kabi inson qalbining nomuvofiqligi va fojeasini kashf etadi. Bosh qahramon qishloq doyasi, yozuvchining o'ziga ham, minglab boshqa bolalarning dunyoga kelishiga ham yordam bergan va keyin davlat siyosatini amalga oshirishga majbur bo'lgan ayol-Mo Yanning xolasi-Van Sin (yoshlikdagi ismi Duan Yan) hisoblanadi.

“Qurbaqa” romanining tuzilishi murakkab: hikoyachi, havaskor dramaturg qaysidir mashhur yozuvchiga xat yozadi. Xatida u mashhur yozuvchidan uning yozgan ishi bilan tanishishni so'raydi. Izlanuvchan dramaturg bu asari syujetini juda muhim deb hisoblaydi: u o'sha vaqtda qishloqda tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan yagona doya bo'lgan xolasi haqida so'zlab bermoqchi. Xola 11 000 nafar bolaning dunyoga kelishiga doyalik qilgan va tom ma'noda o'sha davr afsonasiga aylangan. Lekin muammo shundaki, u bu ishni hali yozib tugatmagan, hozir esa hurmatli yozuvchiga o'zi va xolasi haqida gapirib bermoqchi. Mazkur roman mana shu syujet bilan boshlanadi.

Yozuvchining boshqa romanlari singari, kitobda ham juda ko'p personajlar mavjud. Mo Yan nafaqat oddiy romanlar, balki satirik romanlar ham yozgani uchun uning qahramonlari g'alati ismlarga ega. Romanni mutolaa qilib shuni anglash mumkinki, roman voqealari syujeti aks ettirilgan qishloqda dunyoga kelgan bolalarga tana qismlari va inson ichki a'zolari nomi bo'yicha ism qo'yish odati bor edi.

Xitoy tarixiy madaniyatiga nazar soladigan bo'lsak, bolalarga ism tanlashdagi g'ayritabiiy holatlarni, g'alati ismlar qo'yilganligining guvohi bo'lamiz. Xitoy buyuk adibi Mo Yan taxallasining ma'nosining o'zidan ham fikrimizning isboti tariqasida qarashimiz mumkin. Adibning asl ismi Guan Mo Ye bo'lib, Mo Yan uning taxallusi hisoblanadi. Shoir bolaligi tarixiy-madaniy inqilob davrlariga to'g'ri kelganligi sabab, davr talabidan kelib chiqqan holda uydagilari yosh adibga uydan tashqariga chiqqanida bo'lar-bo'lmas gaplarni aytishni man etgan holfa faqat og'zingni yum, tilingni tiy, jim yur degan gaplarni ko'p marotaba uqtirishgan, shu sabab ham adib ota-onasidan esdalik, o'sha davrdan yodgorlik ma'nosida “莫言” “Sukut saqla” nomini o'ziga taxallus sifatida tanlagan.

Mazkur romanda bolalarga aynan mana shunday g'alati ismlar qo'yilishi haqida ham jumlar keltirilgan.

“先生，我们那地方曾有一个古老的风气生下孩子好以身体部位和人体器官命名。譬如陈鼻，赵眼，吴大肠，孙肩。这风气因何而生，我没有研究，大约是那种以为，“贱名者长生”的心理使然。或者是母亲认为孩子是自己升上一块肉的心理演变……” [1,6]

Mo Yanning “蛙”-“Qurbaqa” romani 2012-yilda xitoy tilidan rus tiliga xitoyshunos, tarjimashunos adibi Igor Yegorov Aleksandrovich tomonidan tarjima qilingan. Shu jumlaning rus tilidagi tarjimasiga qaraymiz. “В наших краях, сенсей, издавна повелось нарекать ребенка при рождении какой-нибудь частью тела или органом. Например, Чэнь Би (Нос), Чжао Янь (Глаз), У Дачан (Толстая Кишка), Сунь Цзянь (Плечо)... Отчего так повелось, я не разбирался, наверное, склад ума такой, когда считают, что чем дряннее имя, тем дольше жизнь, или матери так головой подвигаются, что, мол, ребенок – кусочек плоти ее...”. [2,8]

“...Bizning tomonlarda, sensey, qadimdan yangi tug'ilgan chaqaloqlarga tana a'zosi yoki ichki organlar nomi bilan atash mavjud bo'lgan. Misol uchun, Chen Bi 陈鼻 (burun), Jao Yen 赵眼 (Ko'z), Vu Dachan 午大肠 (Ichak), Sun Dyen 孙肩 (yelka) va boshqalar. Nega bunday ekanligini aniq aytolmayman, o'zim ham tushunmayman, aytishlaricha, ism qanchalik xunuk bo'lsa, bolaning umri shunchalik uzoqroq bo'ladi yoki onalar farzand ularning bir bo'lagi bo'lganligi, yuragining tagidan chiqayotganligi uchun shunaqa ismlar qo'yilishiga rozi bo'lishgan, ehtimol. Hozirgi kunda yosh ota-onalar farzandlarini bunday

g'alati ismlar bilan chaqirishni xohlamaydilar. Bugungi kunda biz ko'pincha Gankong, Tayvan va Janubiy Koreya teleseriallaridagi mashhur va yorqin qahramonlar nomlarni tanlaymiz.”

Mo Yanning “Qurbaqa” romanida personajlarning quyidagicha g'ayritabiiy ismlarini uchratish mumkin:

陈鼻 Burun  
赵眼 Ko'z  
大肠 Ichak  
孙肩 Yelka  
陈耳 Quloq  
陈眉 Qosh  
万脚 Oyoq  
万肝 Jigar  
万胆 O't pufagi  
员腮 Yonoq  
员脸 Yuz  
小下唇 Pastki lab  
小上唇 Yuqorigi lab  
李手 Qo'l  
陈额 Peshana  
禄牙 Tish  
杜脖子 Bo'yin  
万口 Og'iz  
万足 Oyoq

Asar qahramonlari tug'ilganlarida qo'yilgan ismlarini yoshlari katta bo'lgandan keyin ko'p hollarda o'zgartirishgan holatlariga ham duch kelamiz. Bu haqida ham aynan asarda hikoyachi tomonidan shunday deyiladi: “...Bir vaqtlar tana a'zosi bilan atalgan bolalar, keyinchalik boshqacha jarangdor ismlar bilan ismlarini o'zgartirishgan, ba'zilar esa o'sha nomlar bilan qolishgan, masalan, Chen Ar 陈耳(Quloq), Chen Mey 陈眉(Qosh).....”

Asarda hikoya qilinayotgan vaqtda ham ba'zi bunday ismlar qo'yilishiga qarshi yokida farzandini bunday deb atashni o'ziga eb ko'rmaydigan personajlarga ham duch kelamiz. Misol uchun mana bu misralarga e'tibor beramiz: 伙夫老王涛这两汤水遥遥摆摆得走过来。他的女儿王仁美

也是我们的同学，后来成为我的妻子。他是当时少有的没有器官命名的孩子，因为伙夫老王是个有文化的人...” [1,8]

Mana shu jummalarning Igor Yegorov tomonidan qilingan tarjimasiga qaraumiz: “Мимо, с двумя ведрами воды враскачку, проходил повар, почтенный Ван. Его дочь Ван Жэньмэй тоже училась вместе с нами, а впоследствии стала моей женой. Ее – большая редкость в то время – не называли какой-нибудь частью организма, потому что повар Ван – человек образованный...” [2,11]

Mana shu jummalarni o'zbek tiliga tarjima qilamiz: “...Ikki chelak suvni ko'targan holda oshpaz-hurmatli Van yurib keldi. Uning qizi Van Jenmey ham biz bilan birga bitta sinfdan o'qigan, keyinchalik esa aynan u mening rafiqam bo'lgan. O'sha davrda uning boshqalardan yagona farqi shunda ediki, uni qaysidir tana a'zosi nomi bilan hech kim chaqirmas edi, chunki oshpaz Van ilmi odam edi.... ”. Guvohi bo'lishimiz mumkinki, o'sha davrda ham bolalarga bunday ism qo'yish xunuk holat ekanligini ko'pchilik ziyoli qatlam bilgan va farzandlariga bunday ismlarni qo'yishdan bosh tortishgan.

Asar bosh qahramoni, hikoyachi xolasi hisoblangan Van Sin doyaning ham yoshlikdagi ismi Duan Yen (眼-ko'z) bo'lib, keyinchalik Van Singa o'zgartirgani ham o'qimishli qishloq doyasining ilmidan, ziyoli ekanligidan dalolat beradi. Asarda ba'zi personajlarning ismini o'zgartirishiga undan uyalishi emas balki ba'zi bir voqealar sabab o'zgartirganligining ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Asarda Syao Shanchun (上唇 ustki lab) ismli qahramon partiyaning don saqlanadigan omboriga qarovchi bo'lib ishlaydi, ombordagi kalamushlarga qarshi vosita o'ylab topganligi uchun uni gazetaga maqtab yozib chiqishadi va o'zini mashhur sanab ismini Shanchun (纯-toza)ga o'zgartiradi. (Oldingi ismidagi chun 唇-lab ma'nosini bildirar edi).

Bu haqida asarda shunday deyiladi: “县政协编的文史资料上也是这样说的。但也有人私下里说大爷爷腰里缠着八颗手榴弹，骑着骡子，一人独闯平度城，想以孤胆英雄的方式去营救妻子。女儿与老母，但不幸误踩了赵家沟民兵的连环累雷。传播这消息的人姓肖名上唇，曾在西海医院当过但架员。此人阴阳怪气，解放后在社粮库当保官员，曾因发明了一种特效灭鼠药而名噪一时，名字中的“唇”字，见报时也改为“纯”字。后来被揭露，他的特效鼠药的主要成份是国家已经严禁使用的剧毒农药。..... ” [1,15]

Aynan mana shu jummalarni rus tiliga tarjimasini ko'ramiz: “Такую же версию можно найти в исторических материалах, выпущенных

уездным Народным политическим консультативным советом. Но некоторые по секрету рассказывают, что с восемью гранатами за поясом прадед верхом на муле в одиночку отправился в Пинду, чтобы, подобно герою-одиночке, спасти жену, дочь и мать. Но, к несчастью, он попал на минное поле, устроенное ополченцами Чжаоцзягоу. Распространял эти сведения человек по имени Сяо Шанчунь (Верхняя губа), который служил в Сихайском госпитале носильщиком. Человек этот был со странностями, после Освобождения работал кладовщиком на зерновом складе коммуны, придумал некое очень действенное средство против крыс, а когда об этом написали в газете, срочно изменил в своем имени «чунь» – «губа» на «чунь» – «чистый». Впоследствии выяснилось, что это его действенное средство в основном состояло из уже запрещенного к применению высокотоксичного пестицида...” [2,21]

Hikoyachining o'zining ismi ham yoshlikda boshqacha, ulg'ayganidan keyin boshqacha ism va laqabi ham bo'lgan. Bu haqida romanda shunday jumlar mavjud: “我的名字也是姑姑起的：学名万足，乳名小跑。对不起，先生，我对您解释一下，万足是我的原名，蝌蚪是我的笔名……” [1,18] Aynan shu jumlaning rus tilidagi tarjimasiga qaraymiz, “Мои имена тоже она предложила: школьное – Вань Цзу (Нога) и детское – Сяо Пао. Извините, сенсей, должен объяснить, что мое настоящее имя – Вань Цзу. Кэдоу – мой псевдоним.” [2,31]

Mo Yanning “Qurbaqa” romanini mutolaa qilib, shunga guvoh bo'lishimiz mumkinki, XX asrning birinchi yarmi Xitoyda murojaat ismlariga bo'lgan munosabat anchayin past, chunki tug'ilgan farzandlariga ota-onalari tomonidan tana a'zolarining ism sifatida qo'yilishi bu o'sha xalq madaniyatining rivojlanmaganligidan, yokida, o'sha jamiyatda ziyoli qatlam, bilimli insonlarning kamligidan dalolat beradi. Romanni mutolaa qilib bilamizki, romanda aks ettirilgan yillarda ham ziyoli oila vakillari farzandlariga bunaqa tana qismlarini atab qo'yish odatiga qarshi chiqishgan va keyinchalik bu qilingan xatoni, ya'ni noto'g'ri ism qo'yilish holatini tuzatishga harakat qilishgan. Farzandlari balog'atga yetgandan keyin ularga boshqacha chiroyliroq ism qo'yishgan yoki ismi tana a'zosi bilan atalgan odamning o'zi ismini o'zgartirishga kirishgan. Bu demakki, o'sha yillardan boshlab farzandlariga ism qo'yishga e'tibor berila

boshlangan. Zero, farzandga chiroyli ism qo'yish har biro ota-ona oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

#### REFERENCES

1. 莫言“蛙”，北京 2009
2. 莫言“Лягушки”，Igor Yegorov tarjimasi, Москва 2020
3. Musurmonov E.R. “Nobel mukofoti laureati Mo Yan, yoxud ertak va haqiqat qorishgan adabiyotning muvaffaqiyatli bo'lishi xususida”，ilmiy maqola, 2016.
4. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
5. Shamsieva, B. (2022). The term of transfer in the field translation studies. In развитие науки, технологий, образования в ххi веке: актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 99-102).
6. Fatxutdinova, I. A. (2021). Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositalari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 2), 140-149.
7. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
8. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
9. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
10. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
11. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.